



2023- yil yanvar-oktabr oylari uchun
dastlabki ma'lumot



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(76) 225-65-74



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.



Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-oktabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **265 481,2 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **52 385,6 ming AQSH** dollariga yoki **16,5 %** ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)



Ulushi













Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.


TSAda eksport hajmi **172 998,4** ming AQSH dollariga (**7,9 %** ga kamaydi) va import hajmi **92 482,8** ming AQSH dollariga (**28,8 %** ga kamaydi). Hisobot davrida **80 515,6** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

<p>Pokiston</p> <p>TSA – 62 392,3</p> <p>Eksport: 49 385,2 Import: 13 007,0</p> <p> 23,5 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 58 201,3</p> <p>Eksport : 30 678,5 Import : 27 522,8</p> <p> 21,9 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 49 940,9</p> <p>Eksport : 49 215,3 Import : 725,6</p> <p> 18,8 %</p>	<p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 21 556,0</p> <p>Eksport : 16 115,0 Import : 5 441,0</p> <p> 8,1 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 17 978,8</p> <p>Eksport : 5 694,5 Import : 12 284,2</p> <p> 6,8 %</p>
<p>Turkiya</p> <p>TSA – 14 747,5</p> <p>Eksport : 6 266,7 Import : 8 480,8</p> <p> 5,6 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 9 514,9</p> <p>Eksport : 3 093,7 Import : 6 421,2</p> <p> 3,6 %</p>	<p>Italiya</p> <p>TSA – 5 335,8</p> <p>Eksport : 0,6 Import : 5 335,2</p> <p> 2,0 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 3 212,3</p> <p>Eksport : 1 236,8 Import : 1 975,5</p> <p> 1,2 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 2 768,7</p> <p>Eksport : 1 562,1 Import : 1 206,7</p> <p> 1,0 %</p>

Surxondaryo viloyati jahonning **54** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Pokistonda (**23,5 %**), XXRda (**21,9 %**), Afg'onistonda (**18,8 %**), Rossiyada (**8,1 %**), Qozog'istonda (**6,8 %**), Turkiyada (**5,6 %**), Tojikiston (**3,6 %**), Italiyada (**2,0 %**), Hindistonda (**1,2 %**), Eron (**1,0 %**) va Germaniyada (**0,9 %**) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN 14 TA DAVLAT

(2023- yil yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)













Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **11** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Pokiston, Rossiya, XXR, Ozarbayjon, Vetnam, Qirg'iz Respublikasi, BAA, Belarus, Eron va Polsha davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **9** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
Pokiston		33 954,5	59 082,7	62 392,3
	<i>Eksport</i>	26 443,6	38 336,1	49 385,2
	<i>Import</i>	7 511,0	20 746,6	13 007,0
XXR		134 494,2	68 958,3	58 201,3
	<i>Eksport</i>	64 510,2	40 415,9	30 678,5
	<i>Import</i>	69 984,0	28 542,4	27 522,8
Afg'oniston		15 379,2	15 414,3	49 940,9
	<i>Eksport</i>	15 039,8	14 784,6	49 215,3
	<i>Import</i>	339,4	629,7	725,6
Rossiya		38 950,6	61 633,9	21 556,0
	<i>Eksport</i>	18 736,3	22 386,4	16 115,0
	<i>Import</i>	20 214,2	39 247,6	5 441,0
Qozog'iston		40 926,2	43 837,5	17 978,8
	<i>Eksport</i>	18 147,2	33 546,7	5 694,5
	<i>Import</i>	22 779,0	10 290,8	12 284,2
Turkiya		21 353,5	20 316,5	14 747,5
	<i>Eksport</i>	10 191,5	15 093,0	6 266,7
	<i>Import</i>	11 162,0	5 223,4	8 480,8
Tojikiston		8 489,4	10 336,7	9 514,9
	<i>Eksport</i>	4 655,6	2 126,6	3 093,7
	<i>Import</i>	3 833,8	8 210,0	6 421,2
Italiya		1 627,3	606,3	5 335,8
	<i>Eksport</i>	0,1	-	0,6
	<i>Import</i>	1 627,2	606,3	5 335,2
Hindiston		2 328,7	4 709,7	3 212,3
	<i>Eksport</i>	932,1	996,4	1 236,8
	<i>Import</i>	1 396,5	3 713,2	1 975,5
Eron		2 328,7	4 709,7	3 212,3
	<i>Eksport</i>	932,1	996,4	1 236,8
	<i>Import</i>	1 396,5	3 713,2	1 975,5


Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
 Germaniya	5 519,2	3 725,9	2 476,4
<i>Eksport</i>	218,7	2 010,7	728,1
<i>Import</i>	5 300,5	1 715,2	1 748,3
 Turkmaniston	1 678,1	1 165,8	1 866,6
<i>Eksport</i>	278,5	327,7	787,4
<i>Import</i>	1 399,7	838,1	1 079,3
 Niderlandiya	173,2	35,2	1 785,6
<i>Eksport</i>	0,03	0,2	0,5
<i>Import</i>	173,2	34,9	1 785,1
 Ozərbayjon	1 446,7	1 709,9	1 386,6
<i>Eksport</i>	1 446,7	1 709,9	1 386,6
<i>Import</i>	-	-	-
 Belarus	1 273,4	1 980,8	1 140,2
<i>Eksport</i>	512,1	1 658,9	827,7
<i>Import</i>	761,4	321,8	312,4
 Qirg'iz Respublikasi	6 348,1	8 468,9	1 044,8
<i>Eksport</i>	5 665,2	7 396,3	940,4
<i>Import</i>	682,9	1 072,6	104,4
 BAA	525,0	712,9	975,2
<i>Eksport</i>	525,0	712,9	759,9
<i>Import</i>	-	-	215,3
 Vetnam	-	0,01	941,8
<i>Eksport</i>	-	-	889,5
<i>Import</i>	-	0,01	52,3
 Koreya Respublikasi	1 384,6	1 342,3	849,7
<i>Eksport</i>	7,4	13,5	0,03
<i>Import</i>	1 377,2	1 328,8	849,7
 Polsha	490,3	606,0	831,7
<i>Eksport</i>	125,0	488,4	462,9
<i>Import</i>	365,3	117,6	368,8



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-oktabr)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	265 481,2	83,5	100,0
Termiz sh.	36 104,0	94,5	13,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	7 096,2	63,7	2,7
Angor	20 149,1	151,5	7,6
Bandixon	4 431,4	84,1	1,7
Boysun	6 400,9	71,7	2,4
Muzrabot	10 947,9	109,8	4,1
Denov	47 828,3	89,6	18,0
Jarqo'rg'on	21 742,3	71,7	8,2
Qumqo'rg'on	9 915,3	103,7	3,7
Qiziriq	13 124,2	89,1	4,9
Sariosiyo	15 081,6	38,7	5,7
Termiz	24 852,1	72,0	9,4
Uzun	17 755,5	78,4	6,7
Sherobod	19 191,8	129,6	7,2
Sho'rchi	8 889,4	74,7	3,3

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari




Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Denov tumani **18,0** % ulush bilan **47 828,3** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bandixon tumanida **1,7** % ulush bilan **4 431,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **20,8** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **20,3** % ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **20,3** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **79,2** % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, **55 329,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **29 623,2** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **25 706,1** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

Rossiya Federatsiyasi

TSA – 21 556,0
Eksport – 16 115,0
Import – 5 441,0



Qozog'iston

TSA – 17 978,8
Eksport – 5 694,5
Import – 12 284,2



Tojikiston

TSA – 9 514,9
Eksport – 3 093,7
Import – 6 421,2



Turkmaniston

TSA – 1 866,6
Eksport – 787,4
Import – 1 079,3



Ozərbayjon

TSA – 1 386,6
Eksport – 1 386,6
Import – 0,0



Belarus Respublikasi

TSA – 1 140,2
Eksport – 827,7
Import – 312,4



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 1 044,8
Eksport – 940,4
Import – 104,4



Ukraina

TSA – 451,8
Eksport – 388,3
Import – 63,5



Armaniston

TSA – 349,0
Eksport – 349,0
Import – 0,0



Moldova Respublikasi

TSA – 40,8
Eksport – 40,8
Import – 0,0



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**38,9 %**), Qozog'iston (**32,5 %**) hamda Tojikiston (**17,2 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni **279** taga yetdi va ular tomonidan **172 998,4** ming AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **7,9** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	187 898,6	172 998,4	108,5	92,1	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	98 467,5	86 959,4	144,9	88,3	52,4	50,3
Ichimliklar va tamaki	11,0	844,4	3,8	76,8 m.	-	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	8 647,3	6 809,5	65,4	78,7	4,6	3,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	891,3	586,9	19,9 m.	65,8	0,5	0,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	211,7	-	-	-	0,1	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	247,4	298,0	178,5	120,4	0,1	0,2
Sanoat tovarlari	72 473,2	57 338,6	84,2	79,1	38,6	33,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	106,0	240,3	51,3	2,3 m.	0,1	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	3 569,4	14 989,8	2,5 m.	4,2 m.	1,9	8,7
Xizmatlar	3 273,8	4 931,6	84,5	150,6	1,7	2,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **97,1 %** ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**50,3 %**), sanoat tovarlari (**33,1 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**8,7 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	69 320,7	73,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17 449,0	7,7 m.
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	119,6	9,9 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	38,8	17,4
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar	21,0	1,4
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	10,3	2,2 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	844,4	76,8 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	2 529,8	64,5
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari	2 504,2	87,2
Xayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 447,3	143,3
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo (ko'mir,neft va qimmat baho toshlardan tashqari)	328,3	39,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Bo'yoqlar, taninlar va bo'yoqlar	288,7	148,2
Noorganik kimyoviy moddalar	4,6	126,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2,6	86,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari;hojatxona preparatlari, polirotkalash va yuvish vositalari	1,4	3,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,4	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,3	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	213,4	10,5 m.
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	21,3	161,4
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari)	5,7	8,4

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	55 585,4	80,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	1 286,9	172,1
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	384,6	77,1
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	69,8	3,2
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	11,8	5,3
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	0,1	7,3
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	1 476,8	102,5
Transport xizmatlari	1 266,4	5,9 m.
Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari	1 003,1	-
Sayohat	765,0	57,2
Boshqa biznes xizmatlari	420,2	150,3
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	14 384,5	4,8 m.
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	400,3	-
Poyabzal	172,0	2,1 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	32,8	7,1
Har xil tayyor mahsulotlar	0,2	7,7

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlarga **29 623,2** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning **17,1** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Afg'oniston, Pokiston, XXR, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **92,7** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr, % da)





SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)


Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Pokiston	38 336,1	49 385,2	145,0	128,8	2	1
Afg'oniston	14 784,6	49 215,3	98,3	3,3 m.	6	2
XXR	40 415,9	30 678,5	62,7	75,9	1	3
Rossiya	22 386,4	16 115,0	119,5	72,0	4	4
Turkiya	15 093,0	6 266,7	148,1	41,5	5	5
Qozog'iston	33 546,7	5 694,5	184,9	17,0	3	6
Tojikiston	2 126,6	3 093,7	45,7	145,5	9	7
Eron	4 196,7	1 562,1	11,2 m.	37,2	8	8
Ozərbayjon	1 709,9	1 386,6	118,2	81,1	11	9
Hindiston	996,4	1 236,8	106,9	124,1	13	10
Qirg'iz Respublikasi	7 396,3	940,4	130,6	12,7	7	11
Vetnam	0,0	889,5	-	-	-	12
Belarus	1 658,9	827,7	3,2 m.	49,9	12	13
Turkmaniston	327,7	787,4	117,7	2,4 m.	17	14
BAA	712,9	759,9	135,8	106,6	14	15
Germaniya	2 010,7	728,1	9,2 m.	36,2	10	16
Polsha	488,4	462,9	3,4 m.	94,8	15	17
Iroq	398,9	398,8	2,1 m.	100,0	16	18
Ukraina	258,6	388,3	28,9	150,1	18	19
Armeniya	88,8	349,0	-	3,9 m.	23	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-oktabr)*

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	172 998,4	92,1	100
Termiz sh.	11 552,3	141,4	6,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	5 243,0	63,2	3,0
Angor	10 148,8	79,7	5,9
Bandixon	4 413,5	100,3	2,6
Boysun	5 709,0	75,8	3,3
Muzrabot	7 998,3	90,8	4,6
Denov	25 573,1	73,7	14,8
Jarqo'rg'on	16 436,3	71,6	9,5
Qumqo'rg'on	9 387,6	114,1	5,4
Qiziriq	12 099,9	143,8	7,0
Sariosiyo	11 458,0	2,3 m.	6,6
Termiz	16 654,2	70,5	9,6
Uzun	10 845,4	72,1	6,3
Sherobod	16 167,4	130,7	9,3
Sho'rchi	7 917,4	106,7	4,6

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Denov tumani **14,8 %** bilan **25 573,1** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bandixon **2,6 %** bilan **4 413,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI




Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-oktabr oylarida **67 623,7** tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **49,7 %** ga yoki **66 786,2** tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**49,6 %**), Afg'oniston (**13,4 %**), XXR (**10,1 %**), Rossiya (**9,3 %**), hamda Qozog'iston (**6,4 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **70 227,2** ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **28,6 %** ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **40,6 %** ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-oktabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-oktabr)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
Pokiston	10 105,6	34 867,5	49,6
Afg'oniston	12 330,4	9 405,5	13,4
XXR	7 299,1	7 092,6	10,1
Rossiya	8 422,1	6 521,0	9,3
Qozog'iston	21 996,0	4 477,6	6,4
Eron	1 247,5	1 509,0	2,1
Turkiya	426,4	924,8	1,3
Ozərbayjon	463,6	895,2	1,3
Belarus	1 277,4	790,3	1,1
Turkmaniston	695,7	725,2	1,0
Germaniya	225,0	578,0	0,8
Polsha	909,7	461,9	0,7
Iroq	251,4	394,6	0,6
Ukraina	701,3	386,1	0,5
BAA	275,6	329,4	0,5
Qirg'iz Respublikasi	259,2	305,6	0,4
Latviya	117,2	139,2	0,2
Tojikiston	362,2	137,6	0,2
Gruziya	130,8	118,7	0,2
Boshqa davlatlar	127,6	167,6	0,2

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-oktabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **49,6 %**).



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.


To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo‘yicha **71 721,5** ming AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **41,5** % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **2,6** % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**40,9** %), gilamlar (**24,2** %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**20,1** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

		2022- yil	2023- yil
Jami:		73 627,5	71 721,5
	Paxtadan yigirilgan ip	58 732,1	29 302,5
	Gilamlar	306,5	17 391,1
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	3 022,9	14 384,5
	Paxtadan gazlamalar	8 095,9	7 602,9
	Ipak va ipak mahsulotlari	2 856,0	3 035,7
	Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	614,1	4,8

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur‘ati, % da
Afg‘oniston	461,3	32 906,3	71,3 m.
XXR	38 741,4	23 582,5	60,9
Rossiya	8 950,4	6 242,8	69,7
Turkiya	14 025,9	4 996,2	35,6
Tojikiston	200,0	1 038,6	5,2 m.
Pokiston	4 669,2	961,9	20,6
Vetnam	-	889,4	-
BAA	221,4	430,4	194,4
Armeniya	88,8	349,0	3,9 m.
Ozarbajjon	-	138,0	-
Qirg‘iz Respublikasi	3 323,8	133,2	4,0
Eron	1 731,5	53,1	3,1
Belarus	70,3	-	-
Germaniya	682,9	-	-
Hindiston	175,6	-	-
Kanada	57,1	-	-
Polsha	228,0	-	-




To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Afg‘oniston (**45,9 % – 32 906,3** ming AQSH dollari), XXR (**32,9 % – 23 582,5** ming AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (**8,7 % – 6 242,8** ming AQSH dollari) va Turkiya (**7,0 % – 4 996,2** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



 Xizmatlar eksporti hajmi **4 931,6** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **2,9** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **50,6** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy (**30,0** %), transport (**25,7** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**20,3** %), safarlar (turizm) (**15,5** %), va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**8,5** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi **92 482,8** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **71,2 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**45,5 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**22,3 %**), hamda sanoat tovarlari (**21,0 %**) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **38 034,7** ming AQSH dollariga kamaydi va **91 738,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **744,5** ming AQSH dollariga yetdi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	129 968,2	92 482,8	75,9	71,2	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	30 354,1	20 599,3	145,4	67,9	23,4	22,3
Ichimliklar va tamaki	-	259,0	-	-	-	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2 077,0	1 429,7	34,1	68,8	1,6	1,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	549,5	1 828,7	35,9	3,3 m.	0,4	2,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	68,8	370,0	5,9	5,4 m.	0,1	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 573,9	3 190,4	103,5	69,8	3,5	3,4
Sanoat tovarlari	51 371,9	19 388,8	86,5	37,7	39,5	21,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	37 441,6	42 038,7	50,8	112,3	28,8	45,5
Turli xil tayyor buyumlar	3 336,3	2 633,8	82,5	78,9	2,6	2,8
Xizmatlar	195,2	744,5	2,2 m.	3,8 m.	0,2	0,8



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	12 703,4	59,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 886,1	2,9 m.
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 112,3	26,5
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	425,3	42,5
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	199,2	153,5
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	195,2	13,5
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	77,9	90,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	600,7	9,5 m.
Probka va yog'och taxtalar	469,8	2,0 m.
Xayvonlar va o'simliklardan olinadigan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tavsiflanmagan	331,3	21,5
To'qimachilik tolalari (ustki va boshqa taroqsimon junlardan tashqari) va ularning chiqindilari (ip yoki matoga ishlov berilmagan)	16,0	-
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmat baho toshlardan tashqari)	11,8	6,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 828,7	3,4 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 729,1	91,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	438,2	129,5
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	314,0	89,0
Noorganik kimyoviy moddalar	240,9	22,1
Organik kimyoviy moddalar	142,1	38,0
Birlamchi bo'lmagan plastmassalar	120,6	3,5 m.
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	98,4	185,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	83,8	21,6
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	23,3	41,5
Turli xil tayyor buyumlar		
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari, blokli binolar, armatura va mahkamlash	1248,6	99,1


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	970,0	65,3
Yo'l aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	277,1	120,7
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	120,1	36,9
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	15,0	150,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar	2,0	8,2
Poyabzal	0,9	48,1
Sanoat tovarlari		
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7 544,7	84,4
Cho'yan va po'lat	7 416,7	18,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 840,2	11,5 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	961,6	89,2
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	324,4	55,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	143,3	91,9
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	106,9	227,4 m.
Rangli metallar	51,0	113,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalari uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	20 320,7	84,2
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	8 087,7	2,0 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	7 771,9	146,0
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	3 944,0	2,6 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	1 415,6	116,4
Metallni qayta ishlash mashinalari	476,5	3,4 m.
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	16,4	31,8
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	5,9	26,3 m.



2023- yil yanvar-oktabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **27,8 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **19,1 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatimiz **41** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Pokiston, Qozog'iston, Turkiya, Tojikiston, Rossiya Federatsiyasi va Italiya) jami importning **3/4** qismini tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr, % da)





SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)


Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	28 542,4	27 522,8	40,8	96,4	2	1
Pokiston	20 746,6	13 007,0	2,8 m.	62,7	3	2
Qozog'iston	10 290,8	12 284,2	45,2	119,4	4	3
Turkiy	5 223,4	8 480,8	46,8	162,4	7	4
Tojikiston	8 210,0	6 421,2	2,1 m.	78,2	6	5
Rossiya Federatsiyasi	39 247,6	5 441,0	194,2	13,9	1	6
Italiya	606,3	5 335,2	37,3	8,8 m.	17	7
Hindiston	3 713,2	1 975,5	2,7 m.	53,2	17	8
Niderlandiya	34,9	1 785,1	20,2	51,1 m.	32	9
Germaniya	1 715,2	1 748,3	32,4	101,9	9	10
Eron	1 121,7	1 206,7	19,1	107,6	11	11
Turkmaniston	838,1	1 079,3	59,9	128,8	14	12
Koreya Respublikasi	1 328,8	849,7	96,5	63,9	10	13
Litva	2 060,1	790,0	12,3	38,3	8	14
Afg'oniston	629,7	725,6	185,5	115,2	16	15
Ispaniya	3,1	546,0	17,3	178,2 m.	38	16
Ekvador	682,1	424,4	2,4 m.	62,2	15	17
Xitoy, Gongkong MMR	138,0	375,0	147,0	2,7 m.	25	18
Polsha	117,6	368,8	32,2	3,1 m.	26	19
Belarus	321,8	312,4	42,3	97,1	21	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-oktabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Surxondaryo viloyati	92 482,8	71,2	100
Termiz sh.	24 551,7	81,7	26,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	1 853,2	65,0	2,0
Angor	10 000,3	17,7 m.	10,8
Bandixon	17,9	2,1	0,0
Boysun	691,9	49,6	0,7
Muzrabot	2 949,6	2,5 m.	3,2
Denov	22 255,2	119,4	24,1
Jarqo'rg'on	5 306,0	72,2	5,7
Qumqo'rg'on	527,7	39,5	0,6
Qiziriq	1 024,3	16,2	1,1
Sariosiyo	3 623,6	10,7	3,9
Termiz	8 197,9	75,2	8,9
Uzun	6 910,1	90,8	7,5
Sherobod	3 024,4	124,1	3,3
Sho'rchi	972,0	21,7	1,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Termiz shahri **26,5** % bilan **24 551,7** ming AQSH dollarini, eng quyi, Bandixon **17,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.